



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(2)
—
2022



MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	6
Омилхон ИСМАИЛОВ, Александр ПОЛОННИКОВ, Мухиддин БАФАЕВ. Инновационно-ориентированное педагогическое образование Республики Узбекистан: стратегия и тактика развития	6
Shaxlo NURULLAYEVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari.....	12
Nargiza DILOVA, Kimyoxon RAJABOVA. O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ahamiyati	19
Jetkerbay OTEPBERGENOV. Talabalarning murakkab o'quv materiallarini o'zlashtirishda chizma-tasviriy modellardan foydalanish mahorati.....	22
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazminini yangilash va ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish	26
Ne'mat SEVINCHOV, Maftuna HALIMOVA. Pedagogik o'lchovlarning tarkibiy qismlari va ularga qo'yiladigan talablar.....	32
Умида МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	38
Ixtiyor XOLIQOV. Bo'lajak o'qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish	43
Xasan SIDDIKOV. Oliy ta'limda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion shakllari.....	46
Muattar ABDULLAXO'JAYEVA. Zamonaviy o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantiriish.....	50
Perdexan SALIYEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ayrim muammolar va yechimlar .	52
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	55
Shuhrat NE'MATOV, Nargiza MIRYUSUPOVA. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari	60
Асрор ҚОСИМОВ. Бошлангич таълимда ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этиш – долзарб педагогик муаммо сифатида	62
Maftuna MAMEDOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli.....	67
Dildora OMONOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish metodik muammo sifatida.....	70
Manzura KASIMOVA. Maktabgacha ta'limda jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazishda labaratoriya xonalarini tashkil etish	74
Gulzoda ERGASHEVA. Steam ta'lim texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlari.....	78
Азиза ХУСЕНОВА.Моделирование обучения родному языку путём проектирования образования	82
Шакаржон ҚЎЧҚОРОВА. Бошлангич синф ўқувчиларида таянч компетенцияларни шакллантириш долзарб методик муаммо сифатида	90
Дилшод ДАВРОНОВ. Бошлангич синф ўқиш дарсларида бадиий матн устида ишлашда адабий тушунчаларни шакллантиришнинг илмий-назарий асослари	95
Sobirjon ISMATOV. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi	100
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH	105
Qahramon TO'XSANOV. "Masnaviyi ma'naviy"ning o'zbek adabiyotiga ta'siri.....	105
Mexriniso ABUZALOVA, Shahnoza ISLOMOVA. Tibbiy tili va tibbiy matnlarning psixolingvistik xususiyatlari	111
Илона ИСРАИЛОВА. Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов.....	117
Intizor JUMANIYOZOVA. Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy-intellektuallik va ekspressivlikning ifodalananishi	124
ANIQ VA TABIIY FANLAR	127
Mirzohid DAMINOV, Sabohat HALIMOVA. O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf fizika darsliklarining qiyosiyl tahlili	127

Muattar ABDULLAXO'JAYEVA

Toshkent shahar xalq ta'limi
xodimlarini qayta tayyorlash va
ularning malakasini oshirish hududiy
markazi, "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi"
kafedrasи katta o'qitivchisi

ZAMONAVIY O'QITUVCHINING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRIISH

Ushbu maqolada o'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi, muloqot madaniyati, imidji, kompetentligi to 'g'risida so'z boradi.

Kalit so'z: o'qituvchi, kasbiy mahorat, ta'lim-tarbiya, pedagog, axborot texnologiya, muloqot, pedagogik faoliyat.

В статье говорится о доскональном знании учителем оптимальной организации форм обучения в образовательном процессе, обогащении теории формирования всесторонне развитой личности разнообразными новыми идеями, культурой общения, имиджем, компетентностью

Ключевые слова: учитель, профессиональное мастерство, образование, педагог, информационные технологии, общение, педагогическая деятельность.

The article talks about the teacher's thorough knowledge of the optimal organization of teaching forms in the educational process, the enrichment of the theory of the formation of a well-rounded person with various new ideas, communication culture, image, competence

Key word: teacher, professional skill, education, pedagogue, information technology, communication, pedagogical activity.

Kirish. O'qituvchi – pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga boy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir.

Globallashuv sharoitida o'qituvchining pedagogik mahoratida "Bilish, tushunish, qo'llash, tahsil qilish, sintez qilish, baholash" kabi didaktik qonuniyatlar ta'lim berishning muhim kategoriyalari sifatida e'tirof etilgan. Shaxsga ta'lim–tarbiyalash berish niroyatda murakkab jarayon, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilar jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovchi muhim ahamiyatga molik bo'lgan omil ekanligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'nnaviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilgan.

Bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda.

Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?

- o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lim beradigan fanlardan pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmunan

yaxlitligini ta'minlashi;

- pedagogik va axborot texnologiyalari hamda o'quvchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi, o'quv mashg'ulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini uyg'unlashtirish malakasiga ega bo'lishi;

- ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish mazmuniga mos ravishda pedagogik tizimni loyihalay olishi;

- ta'lim beradigan fanlar turkumini rivojlanirish istiqbollarini ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi;

- ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda jahoning rivojlangan mamlakatlarida pedagogika va psixologiya sohasida erishilayotgan ilg'or tajribalarni amalda modernizatsiya qilgan holda qo'llashi;

- Markaziy Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va ma'nnaviy meroslaridan ta'lim- tarbiyaviy faoliyatda foydalana olishi;

- darsning barcha turlarida, mashg'ulotlarda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qitish metodlaridan foydalanishi;

- o'qitadigan fan turkumi bo'yicha avtomatlashtirilgan ta'lim tizimi uchun amaliy dasturlar paketini yaratishi lozim.

Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi qiyofasidagi shaxs pedagogik-psixologik jihatdan

yuksak tayyorgarlikka ega bo'lishi uchun, unda quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarni ifodalaydi):

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy va siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi shart.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda o'z faoliyati tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va axborot texnologiyalarining eng samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi davr talabidir.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqatni, pedagogik texnika sirlarini (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

Ayniqsa, o'qituvchi o'zining individual nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni aks ettirishi kerak:

- a) nutqning to'g'riliqi;
- b) nutqning aniqligi;
- d) nutqning ifodaviyligi;

e) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos bo'limgan so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan, o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilishda qo'llaniladigan qo'pol so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'limgan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlaridan holi bo'lishi;

f) nutqning ravonligi;

g) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rini va samarali foydalana olish). o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak.

O'qituvchi pedagogik-psixologik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarni tarkib topishiga erishishi zarur. U, eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mayjud ziddiyatlarni o'z iroda kuchi bilan bartaraf etishning uddasidan chiqqa olishi zarur. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan mulohot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylilik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur.

O'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar orasida obro'e'tibor qozonishini ta'minlaydi

Adabiyotlar

1. Azizzoxjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / – T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti. 2006.
2. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar / – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Kaykobus. Qobusnoma. "Istiqlol". Toshkent. 1994. B-26
4. Mahmudova D.B. Malaka oshirish kurslari jarayonida texnologiya o'qituvchilarini o'quvchilarni texnik konstruksiyalash faoliyatiga tayyorlash bo'yicha tavsiyalar // O'zbekistonda pedagogika fani va uning istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami Toshkent. 2019 yil. B. 164-165.
5. Mahmudova D.B. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning iqtidorlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari// Uzlusiz ta'lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish masalalari: muammolari va echimlar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2016 yil, 25 iyun. B. 119-120.
6. Mahmudova D.B. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mavqeい // Boshlang'ich ta'lim mazmunini modernizatsiyalash strategiyasi: nazariyasi va amaliyot: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari ikkinchi kitob O'zPFITI Toshkent 2015. Ikkinchi kitob. B.23-26.